



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI KASBIY O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA

*Erkaboyeva N.Sh.*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va ta‘lim menejmenti kafedrası  
professori, pedagogika fanlari doktori*

**Tayanch so‘zlar:** o‘z-o‘zini rivojlantirish, kompetensiya, motivatsion, kasbiy shior metodi, “Men” obrazi, reflektiv tashxis, kreativlik, innovatsion faoliyat.

**Ключевые слова:** саморазвитие, компетентность, мотивация, метод профессионального лозунга, образ «Я», рефлексивная диагностика, креативность, инновационная деятельность.

**Key words:** self-development, competence, motivational, professional slogan method, "I" image, reflexive diagnosis, creativity, innovative activity.

### **Резюме:**

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyat jarayonida kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlashning mezonlari, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning tarkibiy qismlari, Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyat jarayonida kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishda qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari yoritib berilgan.

### **Резюме:**

В статье рассмотрены критерии подготовки будущих учителей к профессиональному саморазвитию в процессе инновационной деятельности, компоненты профессионального саморазвития будущих учителей, профессиональное развитие будущих учителей в процессе инновационной деятельности, образовательные технологии, используемые в саморазвитии. развитие выделено.

### **Summary:**

In the article, criteria for preparing future teachers for professional self-development in the process of innovative activity, components of professional self-development in future teachers, professional development of future teachers in the process of innovative activity educational technologies used in self-development are highlighted.

Ta‘lim tizimi muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodikasi va texnologiyasida yuz berayotgan jiddiy o‘zgarish va yangilanishlar, pedagogik yangiliklar, o‘qituvchi faoliyatining innovatsion yo‘nalganligi, ta‘lim siyosatining yangilanishi kabilar bo‘lajak o‘qituvchining ushbu



yangilanishlarga kasbiy tayyor bo'lishi, shu jumladan, o'z-o'zini rivojlantrirish kompetentligiga ega bo'lishini taqozo etadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish jarayonlarini kuchaytirish, o'quv fanlarining hajmi, tarkibining uzluksiz o'zgarib borishi, o'qitushning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarni doimiy izlashni talab etuvchi yangi o'quv fanlarini o'quv rejaga kiritish kabi vaziyati ta'lim muhitida pedagogik bilimlarning roli va mavqei ortadi va pedagoglarning kasbiy mahortalari faollashadi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik yangiliklarni o'zlashtirish va qo'llashning o'ziga xos xususiyatining o'zgarishi va o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini qat'iy tartibga solish sharoitlarida o'qituvchi nafaqat yangi dasturlar, darsliklarni balki pedagogik faoliyatning yangi usullaridan ham foydalanishi talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning yangi talablari: kasbiy faoliyatga tayyorlashga sharoit yaratish, tez o'zgaruvchan mehnat mazmuni va doimiy ravishda uzluksiz yangilanadigan bilimlar zaruriyati bilan bogliq bo'lib, bu o'z navbatida o'qituvchidan doimiy o'zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Ushbu talab esa bo'lajak o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish malakalari orqali bajarilishi mumkin.

Ta'lim muassasasida innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirish mavjud pedagogik tizimda sezilarli o'zgarishlarni, har bir tinglovchi uchun o'ziga xos ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, o'quv majmualarining yangi uslubiy bazasini yaratish, ta'limining yangi usullari va shakllarini joriy etish bo'yicha qator vazifalarni bajarishni talab etadi. Shunday qilib, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish malakasini shakllantirish innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning asosiy integrativ mezon sifatida ta'lim jarayonining barcha sub'yektlarini samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

O'qituvchining pedagogik innovatsion faoliyatida kreativlik muhim sifat sanaladi. Milliy psixologiyada kreativlik ijtimoiy ahamiyatli ijodiy faollikni namoyon etish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan ijodkorlik, insonning ijodiy imkoniyatari, inson individumning ma'lum alohida barqaror xususiyati sifatida qaraladi. (Selevko D.K. Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy: v 2x tomax. – T 1,2 – M.: NI shkolniy texnologiy 2006 – 816 str).

Jahon tajribasiga ko'ra o'qituvchining innovatsion faoliyat jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish omiliga turlicha qarashlar mavjud.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqot ishlarining diqqat markazida bo'lgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori

samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirishirilgan malakalari qay darajada amaliyotga tadbiiq qilinayotganligiga bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchi faoliyatining asosiy xususiyati maktab o'quvchisi shaxsini shakllantirishni amalga oshirishi, atrof-olamni ilmiy bilishning malakalarini shakllantirish va talabalarning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishlari bilan bog'liqligi hisoblanadi. Mazkur yahlit jarayonni tizimli tashkil etishda markaziy o'rinni o'qituvchi ta'lim-tarbiya mazmunini tashuvchisi talaba bilish faoliyatining shaxsning har tomonlama rivojlanishi va shakllanishi tashkilotchisi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyat jarayonida kasbiy o'z - o'zini rivojlantirishga tayyorlashning quyidagi mezonlari:

- Kasbiy faoliyatning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushunish;
- Kasbiy faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi bilim, malaka, ko'nikmalar xajmiga ega bo'lishi va uni amaliyotda qo'llay olishi;
- Pedagogik jarayonda tegishli tizimli yondashuvni, loyihalash texnologiyalarini joriy etish;
- Kasbiy va ilmiy izlanuvchanlik yo'nalishlarini mustaqil tanlash;
- Turli xil tanlovlar, ilmiy seminar, konferensiyalarda faol ishtirok etish;
- Kasbiy izlanuvchanlik faoliyatida qiyinchiliklarni engal olish;
- Kasbiy vazifalarni mustaqil amalga oshirishda tanlagan metod va vositalarni asoslay olishi;
- O'z-o'zini nazorat qilishi va o'zining pedagogik faoliyatini baxolay olishi;
- O'z-o'zini rivojlantirishga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga intilishi;
- O'zini yaqin kishilarining ko'zi bilan ko'ra olishi va o'zini o'zi takomillashtirishga intilishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning bir necha tarkibiy qismlari bilan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- **Motivatsion:** innovatsion pedagogik faoliyatning kasb qadriyatini anglash va o'zida o'qituvchi kasbiy mahoratiga ega bo'lish istagining paydo bo'lishi, ya'ni o'z-o'zini faollashtirish va o'z o'zini ro'yobga chiqarish qobiliyati.

- **O'z-o'zini bilish va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish:** yangi g'oyalarni yaratishga tayyorgarlik, pedagogik muammolarni aniqlash, farazlar asosida echimlarni topish, amalda qo'llay olish;

- **Psixologik-fiziologik:** o'quvchilar bilan muloqot muammolarini hal etishda moslashuvchanlik, bag'rikenglik, muloqotda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalariga, pedagogik nutq madaniyatiga ega bo'lish;



- **O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati:** innovatsion ta‘lim muhitida hissiy-ixtiyoriy, refleksiv tashxis qo‘yish pedagogik haqiqatni baholash, mutaxassislik yo‘nalishini bilish darajasiga qarab taklif va g‘oyalarni bera olish;

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishda o‘zini-o‘zi namoyon eta olishi, kasbiy sohasi bo‘yicha mustaqil bo‘lishi va yutuqqa erishish uchun harakat qila olishi; o‘z faoliyatida muaommolarni ko‘ra olishi va pedagogik vazifalarni ijodiy hal eta olishi, o‘z faoliyati natijasidan qoniqish hissini tuyishi va o‘ziga nisbatan qat’iy ishonchning paydo bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyat jarayonida kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishda bir qator ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Quyida ana shunday ta‘lim texnologiyalaridan ba‘zilarini keltirib o‘tamiz:

**Kasbiy shior metodi:** guruhning har bir a‘zosi o‘z shiorini shakllantirishi kerak, bu uning kasbga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Kasblar dunyosi o‘zini biror kasb egasi sifatida tasavvur qilgan holda besh daqiqa ichida har bir talaba o‘zining shiorini ishlab chiqadi va navbati bilan unga tavsif berib izohlaydi. Talabalarning individual shiorlarini birlashtirib, kichik guruh shiori birlashtiriladi. Ushbu metod talabaning yashashdan maqsadini yanada aniqroq tushunishiga yordam beradi hamda talabani kasbiy nuqtai nazardan o‘rganish imkonini beradi.

**O‘qituvchi sifatida “Men” obrazi** metodini qo‘llaganda talabalar shartli ravishda o‘qituvchining kasbiga, “men qanday o‘qituvchiman?”, “Men haqiqiy ustozman”, “Men ideal o‘qituvchiman” kabi mavzular asosida o‘zlarining “Men” obrazini ifodalaydilar. Talabalar ikki ustunli jadval tayyorlab, bir tomonga ideal o‘qituvchi sifatlarini, ikkinchi tomonga esa haqiqiy o‘qituvchi sifatlarini bayon qilishadi. Shundan so‘ng ideal va real o‘qituvchi o‘rtasidagi farqlar munozara shaklida ko‘rib chiqiladi. Ideal va real obraz bir-biriga qanchalik mos keladi? Farqi nimada? Ideal o‘qituvchi bo‘lish mumkinmi? Kabi savollarga javoblar natijasida ideal va real o‘qituvchining portretlari yaratiladi, har qaysi kichik guruh tomonidan ochiq muhokama qilinadi va xulosalar chiqariladi. Ushbu metod guruhlar o‘rtasida uzviylikni yaratish, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, kasbiy rivojlanishdagi to‘siqlarni anglash hamda o‘qituvchining “Men” obrazini qabul qilishga ko‘maklashadi.

Yuqorida berilgan texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha malakalarini oshirishga, o‘qituvchining ijodiy individullagini shakllantirishga, innovatsion ta‘lim muhitida o‘zini-o‘zi takomillashtirish va o‘zini o‘zi namoyon etish qobiliyatini rivojlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, pedagogika va psixologiya fani yutuqlarini va



ilgʻor tajribalarini oʻz faoliyatida qoʻllash orqali oʻz sohasining egasi boʻlishiga asos boʻladi. Shuningdek, pedagogik oliy taʼlim muassasalari talabalarini kasbiy faoliyatga, hozirgi zamon shart –sharoitlariga tayyorlash boʻyicha jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga, ularning kasbiy bilim, malaka, koʻnikma hamda shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga va rivojlantirishga erishiladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarda oʻz-oʻzini rivojlantirishi malakalarini rivojlantirishi oʻqituvchining ijodiy individualligini shakllantirish, uning tashabbuskor, mahoratli, pedagogik innovatsion taʼlim muhitida oʻzini-oʻzi takomillashtirish va oʻzini-oʻzi namoyon etish qobiliyatini rivojlantirishga asos boʻladi.

Shuningdek, boʻlajak oʻqituvchining oʻzini-oʻzi kasbiy rivojlantirishni tashkil etishning muhim shartidan biri – pedagogning oʻz faoliyati uchun javobgarlik pozitsiyasini shakllantirish hisoblanadi. Oliy taʼlim jarayonida shunday sharoitlarni yaratish kerakki, uni amalga oshirish oʻz-oʻzini rivojlantirish uchun javobgarlik kabi muhim shaxs sifatini shakllantirishga imkon beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – 74 b
2. Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlim toʻgʻrisidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.09.23. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Mirziyoyev Sh.M. “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947 sonli Farmoni. 07.02.2017. “Xalq soʻzi” gazetasi, 2017 yil 28-(6722) soni.
4. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat. Oʻquv qoʻllanma.- Fargʻona.: “Fargʻona”. 2021. 184-b.
5. Кисель. Н.В. Информационная компетентность учителя как условие эффективного управления образовательным процессом: Дисс... к.п.н. - М.: ПроСофт, 2003. - 210 с
6. Parpiyeva M.M. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda taʼlimning interfaol metodlaridan foydalanish yoʻllari// “Pedagogik mahorat”, 2012 yil, №3-son, 48-51 bet
7. Селевко Д.К. Энциклопедия образовательных технологий: в 2х томах. – Т 1,2 – М.: НИ школьный технологии 2006 – 816 стр
8. Rabbimova F.T. Boʻlajak oʻqituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish. Ar.nom. Diss. Toshkent. 2018. 40 b.